XALQ DEPUTATLARI SIRDARYO VILOYATI KENGASHI
Q A R O R I

100120, Guliston sh., Islom Karimov k., 60-uy, tel: (67)225-33-51, 225-06-78, e-mail: sirdaryo@exat.uz

2021 - yil 30 - dekabr VI-30-61-9-0-K/21 Sirdaryo viloyati hokimligi

2022-yildagi viloyat mahalliy byudjetini tasdiqlash hamda tuman va shahar mahalliy byudjetlari daromadlari va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlarini belgilash to‘g‘risida

2022-yildagi viloyat mahalliy byudjetini tasdiqlash hamda tuman, shahar mahalliy byudjet daromadlari va xarajatlarining prognoz ko‘rsatgichlarini belgilash maqsadida, Byudjet Kodeksining 99-moddasiga, “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining “Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O'RQ-742-sonli Qonuniga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2021-yil 30-dekabrdagi 01/20-01-32/843-sonli xatini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24 va 25-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashi **qaror qiladi:**

1. Viloyatning yalpi hududiy mahsulot bo‘yicha prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq;

viloyat mahalliy byudjeti daromadlari prognoz ko‘rsatkichlari 2-ilovaga muvofiq;

2022-yil uchun tuman (shahar) mahalliy byudjetlarining daromadlari va xarajatlari prognozlari 3-ilovaga muvofiq;

viloyat mahalliy byudjeti mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 4-ilovaga muvofiq;

tuman (shahar)lar mahalliy byudjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari 5-ilovaga muvofiq;

mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara

to‘lovining eng kam stavkalari 6-ilovaga muvofiq (soliq solish maqsadlari uchun);

tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun undiriladigan yig‘imlarning cheklangan stavkalari 7-ilovaga muvofiq;

avtotransport yig‘imlarining stavkalari 8-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Viloyat Moliya bosh boshqarmasi tomonidan;

Advokatlar tomonidan yuridik yordam ko‘rsatganlik uchun haq to‘lash xarajatlari tuman va shahar moliya bo‘limlari tomonidan viloyat Moliya bosh boshqarmasiga taqdim qilingandan talabnomalar asosida tuman va shahar mahalliy byudjetlariga ajratib borilishini;

Davlat organlari yoki ushbu organlar mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) natijasida fuqarolar yoki yuridik shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash xarajatlari sud qarrlari asosida viloyat, tuman va shahar mahalliy byudjetlari orqali moliyalashtirib borilishini;

Davlat tibbiy sug‘urta jamg‘armasiga transfertlarni har oyda ajratilgan mablag‘lar doirasida o‘tkazib berilishini ta’minlasin.

Bunda, Davlat tibbiy sug‘urta jamg‘armasiga ajratilgan transfertlarning oylar kesimida taqsimlangan miqdorlariga o‘zgartirish kiritish hamda yillik ajratilgan qo‘shimcha transfertga talabnomalar Davlat tibbiy sug‘urta jamg‘armasining takliflari asosida amalga oshiriladi va Davlat tibbiy sug‘urta jamg‘armasiga o‘tkazilgan transfertlarni to‘g‘ri ishlatilishi (sarflanishi) bo‘yicha Davlat tibbiy sug‘urta jamg‘armasi javobgar ekanligi belgilansin.

3. O‘zbekiston Respublikasining “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining “Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-742-sonli Qonuniga asosan (keyingi o‘rinlarda - Qonun) O‘zbekiston Respublikasi hududiga tovarlarni olib kirishda qo‘llaniladigan bojxona bojlari stavkalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlandi.

4. Qonunning 6-moddasiga asosan 2022-yil uchun respublika byudjetidan viloyat mahalliy byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfert 673,2 mlrd. so‘m miqdorida tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

5. 2022-yil uchun viloyat byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 7,5 mlrd. so‘m miqdorida belgilansin.

6. Tuman (shahar) byudjetlarining 2022-yil uchun zaxira jamg‘armalari

tegishli byudjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantiriladi.

7. Viloyat, tuman va shahar byudjetlarining olti oylik ijrosi yakunlari bo‘yicha daromad prognozlari bajarilmagan va joriy moliya yilining oxirigacha ularning kelib tushishi uchun yetarli asoslar mavjud bo‘lmagan hollarda viloyat mahalliy byudjeti hamda tuman (shahar) byudjetlarining xarajatlarini qisqartirish bo‘yicha qarorlar tegishincha Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari tomonidan ko‘rib chiqilishi belgilansin;

bunda, xarajatlarni qisqartirishda byudjet tashkilotlarining va byudjet mablag‘lari oluvchilarning byudjet mablag‘larini o‘zlashtirishi, shuningdek, qabul qilingan yuridik va moliyaviy majburiyatlarini hisobga olishini, ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarni kamaytirish O‘zbekiston Respublikasi “Byudjet kodeksi”ning 120-moddasiga muvofiq amalga oshirilsin.

8. Qonunga muvofiq soliqlarning quyidagi turlari tuman (shahar) byudjetlariga:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq.

Viloyat byudjetiga quyidagilar:

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

aylanmadan olinadigan soliq;

qonunchilikda belgilangan miqdorlardagi davlat bojlari (patent bojlaridan va litsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga undiriladigan jarimalar;

ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig‘imlar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlar va g‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig‘imidan, shuningdek, avtotransport vositalari oynalarining tusini o‘zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to‘lovdan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

davlat aktivlarini joylashtirishdan, foydalanishga (ijaraga) berishdan va sotishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar;

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tushumlarning (jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari) 100 foizi;

boshqa daromadlar 100 foizi;

foyda solig‘idan tushumlarning (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek, norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari) 100 foizi o‘tkazilishi belgilangan.

9. Mobil aloqa xizmatlari, tamaki va alkogol mahsuloti, shu jumladan, pivo uchun aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlar tegishincha 2021-yilning1-iyul holatiga ko‘ra, tuman (shahar) aholisi sonining viloyat aholisi sonidagi ulushiga muvofiq

o‘tkazib beriladi.

10. Qonunning 12-moddasiga asosan tuman (shahar) byudjetlarini barqarorligini ta’minlash maqsadida ayrim soliqlaridan ajratmalar me’yorlari 9-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

11. Qonunga muvofiq Xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari tuman va shaharlarning ommaviy dam olish va (yoki) turizmga ixtisoslashtirilgan ayrim hududlarida ijara to‘lovi bo‘yicha eng kam stavkalarga hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining qat’iy belgilangan miqdorlariga Toshkent shahri uchun belgilangan miqdorlargacha o‘sib boruvchi koeffitsientlarni kiritilishini inobatga olib, qonunchilikda mahalliy byudjetlarga o‘tkaziladigan daromadlarning taqsimlanishi nazarda tutilmagan bo‘lsa, daromadning ushbu turi viloyatning viloyat byudjetiga o‘tkazilsin.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi PF-6121-sonli Farmonining 1-bandida belgilangan vakolatlar doirasida qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun tuman va shaharlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ining mutloq miqdorida bazaviy soliq stavkasi 10-ilovaga muvofiq;

jismoniy shaxslardan (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) undiriladigan mutloq miqdorida 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasi 11-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

13. Minimal qiymat bo‘yicha yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq miqdorlari 12-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

14. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining tashabbusiga ko‘ra amalga oshiriladigan qo‘shimcha tadbirlarni moliyalashtirish faqat viloyat, tuman (shahar) mahalliy byudjetlarining qo‘shimcha manbalari hisobidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

15. Viloyat, tuman (shahar) hokimliklari tegishli byudjetlarini birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon va kommunal xizmat xarajatlari rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirsin.

16. Viloyat hokimligi choraklar yakuni bo‘yicha daromad prognoz ko‘rsatkichlari mahalliy ijro hokimiyati organlarining faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan holda besh foizdan ortiq miqdorga bajarilmagan taqdirda va moliya yili

ohirigacha prognoz ko‘rsatkichidagi mablag‘larning tushish ehtimoli bo‘lmasa, xarajatlarni maqbullashtirish yuzasidan ko‘rilgan choralar bilan birgalikda tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini oshirish yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritilishini ta’minlasin.

Tuman va shahar hokimliklari har chorak yakuni bo‘yicha daromad prognoz ko‘rsatkichlari mahalliy ijro hokimiyati organlarining faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan holda besh foizdan ortiq miqdorga bajarilmagan taqdirda va moliya yili ohirigacha prognoz ko‘rsatgichidagi mablag‘larning tushish ehtimoli bo‘lmasa, xarajatlarni maqbullashtirish yuzasidan ko‘rilgan choralar bilan birgalikda tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini oshirish yuzasidan viloyat hokimligiga taklif kiritsin.

17. Qonunga muvofiq 2022-yildan boshlab:

viloyatning umumta’lim muassasalarini, maktabgacha ta’lim tashkilotlarini, sog‘liqni saqlash muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta’mirlashga, shuningdek, sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga oid tadbirlar doirasida obyektlardagi ta’mirlash-tiklash ishlariga doir xarajatlar viloyatning viloyat byudjetidan;

advokatlar tomonidan ko‘rsatilgan yuridik yordam uchun haq to‘lash tegishincha, viloyatning viloyat byudjetidan;

ko‘p xonodonli uy-joy fondiga tutash hududlarni ta’mirlash xarajatlari va O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi tizimiga kiruvchi issiqlik ta’minoti tashkilotlarining issiqlik tarmoqlari va qozonxona uskunalarini kapital ta’mirlash xarajatlari viloyatning viloyat byudjetidan moliyalashtirish;

hududlarda barcha issiqlik energiyasini yetkazib beruvchi korxonalar tomonidan ko‘rsatiladigan issiqlik ta’minoti xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlar (tariflar) ular bo‘yicha dastlab O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasining hududiy organlari xulosalariga ko‘ra, Xalq deputatlari viloyat Kengashi qarori bilan ma’qullanganidan so‘ng viloyat hokimi tomonidan tasdiqlanishi;

issiqlik ta’minoti bo‘yicha xizmatlar uchun tartibga solinadigan narxlarni (tariflarni) yil davomida qayta ko‘rib chiqish yakunlariga ko‘ra, issiqlik bilan ta’minlovchi korxonalar aholiga pasaytirilgan tariflar qo‘llanilishi natijasida

ko‘rgan zararlarining o‘rnini qoplash uchun qo‘shimcha mablag‘larga bo‘lgan talab viloyatning viloyat mahalliy byudjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan qoplanishi belgilanganligini ijro uchun qabul qilishi;

barcha tuman (shahar)larda tegishli byudjetlarning tasdiqlangan umumiy xarajatlarining 5 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirishi;

barcha tuman (shahar)lar byudjetlari qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizi jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirish belgilansin.

18. Viloyat va tuman (shahar) hokimliklari viloyat, tuman (shahar) mahalliy byudjetlarining qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan obyektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar tegishincha majburiy tartibda o‘z rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borsin.

19. Ushbu qaror ijrosini ta’minlash viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari A.Karimov zimmasiga yuklatilsin.

20. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari viloyat Kengashi huzuridagi Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (U.Sotiboldiyev) zimmasiga yuklatilsin.

Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashi raisi **G'.Mirzayev**

Халқ депутатлари Сирдарё вилоят
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-30-61-9-0-K/21-сон қарорига
1-илова

Sirdaryo viloyatining yalpi hududiy mahsulot bo‘yicha prognoz ko‘rsatkichlari

№	Ko‘rsatkichlar	2022-yil uchun prognoz
1.	Yalpi hududiy mahsulot, mlrd. so‘m	16.918,0
2.	Yalpi hududiy mahsulotning o‘sish sur’ati, foizda	108,4
3.	Iste’mol narxlari indeksi, dekabrda avvalgi yil dekabr oyiga nisbatan, foizda	10,2
4.	Sanoat mahsulotlarining o‘sish sur’ati, foizda	108,2
5.	Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarida ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati, foizda	103,3
6.	Xizmat ko‘rsatishning o‘sish sur’ati, foizda	128,9
7.	Savdo, yashash va ovqatlanish xizmati o‘sish sur’ati, foizda	130,1

Халқ депутатлари Сирдарё вилоят
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-30-61-9-0-K/21-сон қарорига
2-илова

Viloyatning viloyat mahalliy byudjeti daromadlari prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

№	**Daromad turlari**	**miqdori**
	Daromadlar miqdori, jami	**1.415.538.950,0**
	shu jumladan:	
	Mahalliy daromadlar	**742.342.670,0**
	Respublika byudjetidan ajratiladigan transfertlar miqdori	**673.196.280,0**
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	93.348.000,0
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	374.339.071,0
3	Aksiz solig‘i (jami)	50.917.000,0
4	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	36.411.300,0
5	Yuridik shaxslarning yer solig‘i	43.206.299,0
6	Davlat boji	51.166.000,0
7	Jarimalar	33.408.000,0
8	Davlat tashkilotlarining sof foydasidan daromad	2.607.000,0
9	Yig‘imlar	30.240.000,0
10	Xususiylashtirish	25.000.000,0
11	Boshqalar	1.700.000,0
12	Respublika byudjetidan ajratiladigan transfertlar miqdori	673.196.280,0

Халқ депутатлари Сирдарё вилоят
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-30-61-9-0-K/21-сон қарорига
3-илова

2022-yil uchun tuman va shahar mahalliy byudjetlarining daromadlari va xarajatlari prognozlari

ming so‘mda

Hudud nomi	Daromad *	Xarajat**
JAMI	**362.200.330,0**	**1.018.222.503,0**
Guliston shahri	52.609.152,0	121.501.755,0
Shirin shahri	14.554.062,0	39.702.170,0
Yangiyer shahri	23.188.414,0	69.449.159,0
Guliston tumani	27.312.930,0	95.747.420,0
Boyovut tumani	44.037.588,0	124.871.724,0
Sayxunobod tumani	30.183.945,0	91.095.927,0
Sardoba tumani	23.114.880,0	77.930.646,0
Mirzaobod tumani	30.617.971,0	84.162.991,0
Xovos tumani	37.497.062,0	98.405.188,0
Oqoltin tumani	22.535.303,0	76.334.790,0
Sirdaryo tumani	56.549.023,0	139.020.733,0

* Mobil aloqa xizmati va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i, tamaki mahsulotlari tushumlaridan ajaratiladigan mablag‘larni inobatga olgan holda

**Davlat tibbiy sug‘urta jamg‘armasiga transfertlar - 345 109 448 ming so‘m (Guliston shahri - 38 379 554 ming so‘m, Shirin shahri - 13 119 015 ming so‘m, Yangiyer shahri - 29

836 047 ming so‘m, Guliston tumani - 34 357 454 ming so‘m, Boyovut tumani - 44 590 819 ming so‘m, Sayxunobod tumani - 29 848 319 ming so‘m, Sardoba tumani - 24 306 379 ming so‘m, Mirzaobod tumani - 20 272 067 ming so‘m, Xovos tumani - 31 718 370 ming so‘m, Oqoltin tumani - 26 744 772 ming so‘m, Sirdaryo tumani - 51 936 652 ming so‘m.

Халқ депутатлари Сирдарё вилоят
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-30-61-9-0-K/21-сон қарорига
4-илова

Viloyat mahalliy byudjeti mablag‘larini taqsimlovchilarga jratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	Miqdori
Xarajatlar miqdori, jami		**1.415.539.227,5**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**344.846.669,5**
	Davlat organlari yoki ushbu organlar mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) natijasida fuqarolar yoki yuridik shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash xarajatlari	**2.124.149,0**
	Advokatlar tomonidan yuridik yordam ko‘rsatganlik uchun haq to‘lash xarajatlariga	**1 000 000,0**
	Davlat tibbiy sug‘urta jamg‘armasiga transfertlar	**177.152.440,0**
	Zaxira jamg‘armasi	**7.514.530,0**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	**227.879.266,0**
	Tuman va shahar mahalliy byudjetlariga transfertlar	**656.022.173,0**
1	**Xalq ta’limi boshqarmasi**	**104.034.120,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	60.138.665,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	43.895.455,0
2	**Maktabgacha ta’lim boshqarmasi**	**21.471.260,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2.102.371,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar**	19.368.889,0
3	**Kasbiy ta’limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish Sirdaryo viloyati hududiy boshqarmasi**	**764 828,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	764 828,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
4	**Sog‘liqni saqlash boshqarmasi**	**57 713 312,0**

	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	33 213 312,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar**	24 500 000,0
5	**Tibbiy-ijtimoiy xizmatlar boshqarmasi**	**24.580.238,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	24.580.238,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
6	**Madaniyat boshqarmasi**	**26 265 914,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	26 265 914,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
7	**Turizm va sport boshqarmasi**	**22 830 871,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	22 830 871,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
8	**Yo‘l harakati ekspluatatsiya va montaj bo‘limini saqlash xarajatlari**	**1.227.193,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1.227.193,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
9	**Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish boshqarmasi**	**9.062.168,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2.945.168,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	6.117.000,0
10	**Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi**	**2 119 358,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 119 358,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
11	**Viloyat o‘simliklar karantini hududiy inspeksiyasi**	**8.193.455**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	8.193.455
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
12	**O‘zagrokimyohimoya hududiy aksiyadorlik jamiyati**	**957.590,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	957.590,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
13	**Quyi Sirdaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi**	**143.382.104,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	61.863.104,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar**	81.519.000,0
14	**Viloyat transport boshqarmasi**	**1 922 993,0**

	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 922 993,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
15	**Ekologiya va atrof muhitni himoya qilish boshqarmasi**	**5.386.574,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	5.386.574,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
16	**Moliya bosh boshqarmasi**	**840 486 849,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 188 087,0
	Davlat organlari yoki ushbu organlar mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) natijasida fuqarolar yoki yuridik shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash xarajatlari	2.124.149,0
	Advokatlar tomonidan yuridik yordam ko‘rsatganlik uchun haq to‘lash xarajatlariga	1 000 000,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
	Tuman va shaxar mahalliy byudjetlariga transfertlar	656 022 173,0
	Davlat tibbiy sug‘urta jamg‘armasiga transfertlar	177 152 440,0
17	**G‘aznachilik boshqarmasi**	**5 434 391,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	5 434 391,0
	G‘aznachilik boshqarmasini saqlash xarajatlari	5 391 602,0
	G‘aznachilik boshqarmasining malakasini oshirish xarajatlari	42 789,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
18	**Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi viloyat boshqarmasi**	**6 471 307,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	6 471 307,0
	Pensiya jamg‘armasi boshqarmasini saqlash xarajatlari	6 437 182,0
	Pensiya jamg‘armasi viloyat boshqarmasining malakasini oshirish xarajatlari	34 125,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
19	**Yer resurslari va davlat kadastri boshqarmasi**	**1 290 188,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 290 188,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	

20	**Viloyat O‘rmon xo‘jaligi boshqarmasi**	**2.864.505,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2.864.505,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
21	**Viloyat veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi**	**4.178.577,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4.178.577,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
22	**Monopoliyaga qarshi kurashish boshqarmasi**	**1 187 382,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 187 382,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
23	**Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Sirdaryo viloyati boshqarmasi**	**1 291 369,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 291 369,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
24	**Bandlik va mehnat munosabatlari bosh boshqarmasi**	**1 466 586,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 466 586,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
25	**Qurilish bosh boshqarmasi**	**1 997 552,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 997 552,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
26	**Investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi**	**7 065 953,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	7 065 953,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
27	**Adliya boshqarmasi**	**5 197 450,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	5 197 450,0
	Adliya boshqarmasi	3 933 578,0
	FHDYOlarni saqlash xarajatlari	1 263 872,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	

28	**Sirdaryo viloyati Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bosh boshqarmasi**	**9 253 645,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	9 253 645,0
	Sirdaryo viloyati Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bosh boshqarmasi	8 257 795,0
	Tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi Sirdaryo viloyati vakolatli ofisi*	995 850,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
29	**Viloyat hokimligi**	**72 807 223,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	17 500 186,0
	Viloyat hokimligini saqlash xarajatlari	6 340 864,0
	*Bosh vazir qabulxonasini saqlash xarajatlari**	2 305 167,0
	Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirish o‘quv kursi xarajatlari	356 623,0
	Xalq deputatlari Kengashi kotibiyatini saqlash xarajatlari	378 561,0
	Viloyat Xalq qabulxonasini saqlash xarajatlari	3 682 807,0
	Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi xarajatlari	442 716,0
	Xalq deputatlari viloyat Kengashi huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi faoliyatini amalga oshirish xarajatlari	1 148 008,0
	Avtobus yo‘nalishlarining yillik subsidiyalash xarajatlari	2 845 440,0
	Zaxira jamg‘armasi	7 514 530,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar**	47 792 507,0
30	**Arxiv ishi hududiy boshqarmasi**	**2.041.499,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2.041.499,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
31	**Saylov komissiyasini saqlash xarajatlari**	**54.266,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	54.266,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
32	**Pillachilik va qorako‘lchilikni rivojlantirish qo‘mitasi Sirdaryo viloyati hududiy boshqarmasi**	**140.995,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	140.995,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
33	**Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasining saqlash xarajatlari**	**3.479.688,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3.479.688,0

	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
34	**Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasining hududiy boshqarmalarini saqlash xarajatlari**	**4 859 607,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 859 607,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
35	**Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash boshqarmasi saqlash xarajatlari**	**1 573 128,0**
	joriy xarajatlar	1 573 128,0
	shu jumladan:	
	Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash boshqarmasini saqlash xarajatlari	1 557 507,0
	1941-1945 yillardagi urush faxriylarini, shuningdek, fashistlar konslagerlarining voyaga yetmagan sobiq mahbuslari va Lelingrad shahri qamal qilingan davrda ishlagan fuqarolarga asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari va gigiyena tovarlarini yetkazib berish bilan bog‘liq xarajatlar	15 621,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
36	**Boshqa xarajatlar**	**12 484 812,0**
	joriy xarajatlar	7 798 397,0
	shu jumladan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi hududiy bo‘linmalari xarajatlari	2 441 808,0
	Viloyat hokimligining maxsus bazasini saqlash xarajatlari	811 623,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar**	4 686 415,0
	Ichki ishlar organlarining qo‘shimcha shtatlarini saqlash xarajatlariga	4 544 966,0

*. Ushbu tashkilotlarga ko‘zda tutilayotgan mablag‘lar doirasida xodimlar va boshqa debitor va kreditor qarzdorliklar bo‘yicha yakuniy hisob-kitoblari amalga oshirilgandan so‘ng, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi PQ-62-sonli qarori bilan tashkil qilingan mahallabay ishlar va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligining viloyat boshqarmasiga qayta taqsimlanadi.

** Ushbu ajratilgan mablag‘ bo‘yicha qurilish ta’mirlash obyektlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil uchun tasdiqlanadigan Investisiya dasturi to‘g‘risidagi qarori va Vazirlar Mahkamasining bayonlari asosida aniqlashtiriladi.

Халқ депутатлари Сирдарё вилоят
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-30-61-9-0-K/21-сон қарорига
5-илова

Viloyat, tuman va shahar mahalliy byudjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so‘mda

№	**Shahar va tumanlar**	**Tartibga soluvchi transfert miqdori**
	JAMI	**673.196.280,0**
	shundan	
1.	Viloyat byudjeti	17.174.107,0
2.	Guliston shahri	68.892.603,0
3.	Shirin shahri	25.148.108,0
4.	Yangiyer shahri	46.260.745,0
5.	Guliston tumani	68.434.490,0
6.	Boyovut tumani	80.834.136,0
7.	Sayxunobod tumani	60.911.982,0
8.	Sardoba tumani	54.815.766,0
9.	Mirzaobod tumani	53.545.020,0
10.	Xovos tumani	60.908.126,0
11.	Oqoltin tumani	53.799.487,0
12.	Sirdaryo tumani	82.471.710,0

Халқ депутатлари Сирдарё вилоят
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-30-61-9-0-K/21-сон қарорига
6-илова

2022-yil uchun mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalari

№	Ijaraga beriladigan mol-mulk turi	Belgilangan stavka miqdorini tavsiflovchi ko‘rsatkich	Oylik ijara stavkalarining eng kam miqdorlari, so‘mda	
			Guliston shahri	boshqa aholi punktlari
1.	**Uy-joylar:**			
	turar joy	umumiy maydonning 1 kv. metri uchun	9.000	4.000
	noturar joy		17.000	7.000
2.	**Avtomobil transporti:**			
	yengil avtomobil (yo‘lovchilar, bagaj tashishga mo‘ljallangan hamda haydovchi o‘rnini hisoblamaganda, o‘rindiqlari soni 8 tadan ko‘p bo‘lmagan avtotransport vositasi)	1 ta avtotransport vositasi uchun	575.000	
	mikroavtobuslar, avtobuslar va yuk avtomobillari		1.150.000	

Izoh: Mazkur stavkalar jismoniy shaxslarning mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlariga soliq solish maqsadida qo‘llaniladi.

Халқ депутатлари Сирдарё вилоят
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-30-61-9-0-K/21-сон қарорига
7-илова

2022-yil uchun tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun undiriladigan yig‘imlarning cheklangan stavkalari

Yig‘imlarning turlari	Bir oyga chegaralangan stavkalar (so‘mda)		
	Guliston shahri	boshqa shaharlar	boshqa aholi punktlari
Alkogolli mahsulotlarni sotish huquqi uchun undiriladigan yig‘im	1.200.000	900.000	700.000
Umumiy ovqatlanish korxonalari uchun alkogolli mahsulotlarni sotish huquqi uchun undiriladigan yig‘im	600.000	500.000	350.000

Халқ депутатлари Сирдарё вилоят
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-30-61-9-0-K/21-сон қарорига
8-илова

2022-yil uchun avtotransport yig‘imlarinnng stavkalari

T/r	Yig‘imlar va to‘lovlar turlari	Yig‘imlar stavkalari
I	**Chet davlatlar avtotransport vositalarining O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig‘imlar**	**AQSH dollarida**
1	O‘zbekiston Respublikasi hududiga chet el davlatlaridan avtotransport vositalari kirganligi va tranziti uchun yig‘im, bitta avtotashuvchi kirganligi uchun stavkalari (2 - 5 bandlarda ko‘rsatilgan mamlakatlar bundan mustasno)	400
2	Tojikiston Respublikasi yuk avtotransport vositalarini O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va tranzit harakatlanganligi uchun yig‘imlar:	
	10 tonnagacha	100
	10 tonnadan 20 tonnagacha	150
	20 tonnadan yuqori	200
3	Qozog‘iston Respublikasi yuk avtotransport vositalarini O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va tranzit harakatlanganligi uchun yig‘im	300
4	Qirg‘iziston Respublikasi yuk avtotransport vositalarini O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va tranzit harakatlanganligi uchun yig‘im	300
5	Turkmaniston Respublikasi yuk avtotransport vositalarini O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va tranzit harakatlanganligi uchun yig‘imlar:	
	10 tonnagacha	50
	10 tonnadan 20 tonnagacha	100
	20 tonnadan yuqori	150
II	**Avtotransport vositalarini sotib olganlik va (yoki) O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig‘im**	
1	Yangi hamda foydalanishda bo‘lgan avtotransport vositalari bo‘yicha	xarid qilish narxining 1 foizi

Izoh:

1. O‘zbekiston Respublikasi hududi bo‘ylab xorijiy davlatlarning og‘ir yuk tashuvchi va yirik gabaritli transport vositalari o‘tganligi uchun mazkur ilovada nazarda tutilgan stavkalar bo‘yicha yig‘im to‘lanishi bilan bir qatorda qo‘shimcha ravishda qonunchilikda belgilangan miqdorlarda to‘lov undiriladi.
2. O‘zbekiston Respublikasiga uchinchi mamlakatlardan yuklar olib o‘tishda va O‘zbekiston Respublikasi hududidan yuklarni olib chiqishda Turkmaniston Respublikasi yuk avtotransport vositalaridan qo‘shimcha ravishda 175 AQSH dollari miqdorida yig‘im undiriladi.

3. Gumanitar yuklarni olib o‘tishda avtotransport vositalarining olib kirilishi va tranzitida undiriladigan yig‘imlar stavkasiga nisbatan 0,5 kamaytiruvchi koeffitsient qo‘llaniladi.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

Халқ депутатлари Сирдарё вилоят
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-30-61-9-0-K/21-сон қарорига
9-илова

2022-yil uchun tuman va shahar byudjetlariga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yorlari

(foiz hisobida)

T/R	Shahar va tumanlar nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Jismoniy shaxslarning mulklarni ijaraga berishidan olinadigan yillik daromadlari bo‘yicha deklaratsiyaga asosan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qar’idan foydalanganlik uchun soliq, bunda sement xom ashyosi va sement ishlab chiqarishda foydalaniladigan ohaktosh mustasno	Ijara to‘lovlari	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bunda elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno	Aylanmadan olinadigan soliq	Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i
1	Guliston shahri	100	100	100	100	100	100	100	10	10	3
2	Shirin shahri	100	100	100	100	100	100	100	10	10	20
3	Yangiyer shahri	100	100	100	100	100	100	100	10	10	20
4	Guliston tumani	100	100	100	100	100	100	100	10	10	20
5	Boyovut tumani	100	100	100	100	100	100	100	10	10	20
6	Sayxunobod tumani tumani	100	100	100	100	100	100	100	10	10	20
7	Sardoba tumani	100	100	100	100	100	100	100	10	10	20
8	Mirzaobod tumani tumani	100	100	100	100	100	100	100	10	10	20
9	Xovos tumani	100	100	100	100	100	100	100	10	10	20
10	Oqoltin tumani	100	100	100	100	100	100	100	10	10	20
11	Sirdaryo tumani	100	100	100	100	100	100	100	10	10	15

Халқ депутатлари Сирдарё вилоят
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-30-61-9-0-K/21-сон қарорига
10-илова

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha 1 gektar uchun mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2022-yil uchun (ming.so‘m)
1	Guliston shahri	1,3	28.600,0
2	Shirin shahri	1,0	22.000,0
3	Yangiyer shahri	1,2	26.400,0
4	Guliston tumani	1,0	22.000,0
5	Boyovut tumani	1,0	22.000,0
6	Sayxunobod tumani	1,0	22.000,0
7	Sardoba tumani	1,0	22.000,0
8	Mirzaobod tumani	1,2	26.400,0
9	Xovos tumani	1,0	22.000,0
10	Oqoltin tumani	1,0	22.000,0
11	Sirdaryo tumani	1,2	26.400,0

Izox: *Shahar va tuman Kengashlari tomonidan yuridik shaxslar uchun yer solig‘i stavkasini mahalla fuqarolar yig‘inlari kesimida tuman (shahar) markazlari uzoq-yaqinligiga qarab, 0,7-3,0 kamaytiruvchi va ko‘paytiruvchi koeffitsientlarni belgilash huquqiga ega.*

Халқ депутатлари Сирдарё вилоят
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-30-61-9-0-K/21-сон қарорига
11-илова

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

so‘mda

T/r	Hudud nomi	Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2022 yil uchun
1	Guliston shahri	1,00	205,0
2	Shirin shahri	1,00	205,0
3	Yangiyer shahri	1,00	205,0
4	Guliston tumani	1,00	205,0
5	Boyovut tumani	1,00	205,0
6	Sayxunobod tumani	1,00	205,0
7	Sardoba tumani	1,00	205,0
8	Mirzaobod tumani	1,00	205,0
9	Xovos tumani	1,00	205,0
10	Oqoltin tumani	1,00	205,0
11	Sirdaryo tumani	1,00	205,0

Izox: *Shahar va tuman Kengashlari tomonidan jismoniy shaxslar uchun yer solig‘i stavkasini mahalla fuqarolar yig‘inlari kesimida tuman (shahar) markazlari uzoq-yaqinligiga qarab, 0,7-3,0 kamaytiruvchi va ko‘paytiruvchi koeffitsientlarni belgilash huquqiga ega.*

Халқ депутатлари Сирдарё вилоят
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-30-61-9-0-K/21-сон қарорига
12-илова

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo‘yicha belgilangan minimal miqdorga kiritilayotgan kamaytiruvchi koeffitsientlar

so‘mda

T/r	**Hudud nomi**	**Koeffitsient (0 dan 0,5 gacha)**	**Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasi 2022-yil uchun (so‘m)**
1	Guliston tumani	0,7	700.000,0
2	Boyovut tumani	0,7	700.000,0
3	Sayxunobod tumani	0,7	700.000,0
4	Sardoba tumani	0,6	600.000,0
5	Mirzaobod tumani	0,7	700.000,0
6	Xovos tumani	0,6	600.000,0
7	Oqoltin tumani	0,7	700.000,0
8	Sirdaryo tumani	1,0	1.000.000,0